



## XALQ DEPUTATLARI QO'QON SHAHAR KENGASHI

# QARORI

2022 йил «13» май

VI-47-42-11-166-K/22

Кўқон шаҳар ҳокимлиги

### Qo'qon shahar "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larni sarflanishi haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 apreldagi "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini tashkil etish bo'yicha tashabbusi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22-apreldagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 213-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq jamg'arma mablag'larini koronavirus pandemiyasi va karantin davrida ehtiyojmand oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" Qonunning 6,24-moddalariga asosan Halk deputatlari Qo'qon shahar Kengashi

#### QAROR QILADI:

1. Qo'qon shahrida ijtimoiy himoyaga muxtoj, ko'p farzandli oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, o'z daromadini yo'qotgan, vaqtincha ishsiz bo'lgan fuqarolarga va asosiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ayollarni tadbirkorlik va o'z-o'zini band qilishga yo'naltirish maqsadida tikuv mashinalari olib berish uchun "Mahalla" xayriya jamoat fondi Qo'qon shahar bo'linmasining "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini yo'naltirish yuzasidan taklif ma'qullansin.

2. "Temir daftar"da bo'lgan fuqarolarni doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, tadbirkorlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kambag'alchilikdan

chiqishiga yordam berish uchun tikuv mashinalari olib berish uchun “Mahalla” xayriya jamoat fondi Qo‘qon shahar bo‘linmasining “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari xisobidan 87 150 000 (sakson yetti million bir yuz ellik ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

3. “Mahalla” xayriya jamoat fondi Qo‘qon shahar bo‘linmasi (A.Mamayusupov)ga ajratilgan mablag‘larni shaharda faoliyat ko‘rsatayotgan kommunal xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, xususiy tadbirkorlik sub’yektlari bilan shartnomalarni rasmiylashtirish xamda mazkur shartnomalar asosida mablag‘larni maqsadli, to‘g‘ri va manzilli sarflash ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashining “Qonuniylikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si raisi M.Aminova hamda Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash Qo‘qon shahar bo‘limi raxbari B.Po‘latov zimmasiga yuklatisin.

**Kengash raisi**



**M.Usmanov**